

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
2-son. 2-qism. Fevral-2026**

**KARL POPPER IJODIDA ILMIY BAHS TUSHUNCHASI VA
RATSIONAL ARGUMENTLASH MODELI**

Sherboboyev Muxriddin Azimmurod o'g'li

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti, PhD

E-mail: msherboboyev@bk.ru

Orcid: [0000-0002-9299-1475](https://orcid.org/0000-0002-9299-1475)

Annatsiya: Mazkur maqola Popperring ilmiy bahs tushunchasi va tanqidiy ratsionalizm asosidagi argumentlash modelini konstruktiv tahlil qilindi. Bahsning normativ qoidalari, bahsiy raqobat va kooperatsiyaning ilmiy taraqqiyotdagi roli, shuningdek, zamonaviy argumentatsiya nazariyalari (pragma-dialektik, informal mantiq yondashuvlari) bilan Popper konsepsiyasi o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni muhokama qilindi.

Kalit so'zlar: Karl Popper, bilish, bahs, argumentlash, falsifikatsiya, demokratsiya, tanqidiy ratsionalizm, ilmiy bilish.

Аннотация: Данная статья представляет собой конструктивный анализ концепции научной дискуссии Поппера и модели аргументации, основанной на критическом рационализме. Рассматриваются нормативные правила дискуссии, роль аргументативной конкуренции и сотрудничества в научном прогрессе, а также сходства и различия между современными теориями аргументации (pragma-диалектический подход, подход неформальной логики) и концепцией Поппера.

Ключевые слова: Карл Поппер, знание, дискуссия, аргументация, фальсификация, демократии, критический рационализм, научное знание.

Abstract: This article is a constructive analysis of Popper's concept of scientific debate and the argumentation model based on critical rationalism. The normative rules of debate, the role of argumentative competition and cooperation in scientific progress, as well as the similarities and differences between modern argumentation theories (pragma-dialectical, informal logic approaches) and Popper's concept are discussed.

Keywords: Karl Popper, knowledge, debate, argumentation, falsification, democracies, critical rationalism, scientific knowledge.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 2-qism. Fevral-2026

Kirish (Introduction)

XX asr falsafasining ilmiy bilish metodologiyasi yo'nalishida Karl Popper tutgan o'rni beqiyosdir. U ilmiy nazariyalarning o'sish mexanizmini "taxminlar va raddiyalar" dinamikasi doirasida talqin qilib, ilmning chegaralanishi masalasini ratsional bahs va sinovchan tanqidga tayangan holda yechishga harakat qiladi. Popper uchun ilmiy bahs, avvalo, izchil va intizomli tanqidiy muhokama bo'lib, u nazariyani tasdiqlashga emas, balki uni qat'iy sinovdan o'tkazib, rad etish ehtimollarini oshirishga qaratilgan intellektual jarayondir.

Popperning ilmiy bahs haqidagi g'oyalari uning falsifikatsiya prinsipidan kelib chiqadi. Har qanday nazariya ilmiy bo'lishi uchun u rad etilishi (falsifikatsiya qilinishi) kerak. Popper buni nazariy "taxminlar" (conjectures) va "raddiyalar" (refutations) o'rtasidagi jarayon sifatida talqin qiladi. Bunda nazariyalar qat'iy sinovlarga ro'baro' qilinadi, sinovdan o'tmaganlari chetlanadi, o'z navbatida, sinovdan o'tganlari ham hech qachon "yakuniy haqiqat" maqomiga ko'tarilmaydi, balki keyingi, yanada qat'iy sinovlar uchun ochiq qoladi. Shuning uchun Popper nazarida ilmiy bahs – bu "tasdiqlash" retorikasi emas, balki "rad etilishi mumkinlik" asosida qurilgan tanqidiy muloqotdir. Undagi argumentlashning maqsadi o'z dalilini absolyutlashtirish emas, balki xatoni topish, aniqlash va chetga surish orqali bilimni ichki kuchaytirishdir[1.33-45].

Ilmiy bahs Popper nazarida uch o'lchamga ega. Birinchisi, epistemik o'lcham, bahs bilimni o'stiruvchi instrument bo'lib, eng yaxshi dalillarga e'tibor qaratadi va "tasdiqlovchi dalillarni yig'ish" hayolidan saqlaydi. Ikkinchisi, metodologik o'lcham bo'lib bunda, bahs qat'iy sinov sharoitlarini yaratish, safsatabozlikni kamaytirish va nazariyani "yolg'on-immunitet"dan tozalash bo'yicha qoidalarni talab qiladi. Uchinchi o'lcham, ijtimoiy-axloqiy: bahs bo'lib bunda halollik va ochiqlik etikasiga tayaniladi. Bu bosqichda dalilni qayta ishlab chiqish, e'tirozlarni ro'yxatdan o'tkazish, faktlar oldida prinsipsizlik qilmaslik talab etiladi. Ana shu uchlik Popperning ilmiy muloqotga oid konsepsiyasini aks ettiradi [3.1-23].

Popperning "tanqidiy ratsionalizm"i klassik nazariyani oqlashga dalillarni nazariyani "asoslash" yo'lida jamlashga tanqidiy munosabatni ilgari suradi. Uning fikriga ko'ra, nazariyaning " mantiqiy asosi" yoki "tajribaviy asosi"ni mutlaq asoslash imkoni mavjud emas. Umumiy prinsiplar induktiv yo'l bilan qanchalik ko'p tasdiqlansa

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 2-qism. Fevral-2026

ham, birgina falsifikatsiya ularni qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Demak, ratsional bo'lish – bu qat'iy sinovlar oldida prinsipial ochiqlik va xatodan qo'rqmaslik demakdir. Bahs jarayonida “isbot” o'rnini “xatoni ko'rsatish” va “muqobilni taqqoslash” jarayoni egallaydi. Bu pozitsiya ilmiy bahsga ikta strategik talab qo'yadi. Birinchidan, e'tirozlarni haqiqiy xavfli sinovga aylantirish, ikkinchidan, nazariyani e'tirozlar bilan “moslashtirish” emas, balki e'tirozlar talab qilgan qayta ko'rib chiqishni printsipial qabul qilish [2.86-105].

Popper talqinidagi ratsional argumentlash modeli, bir tomondan nazariy raqobatni rag'batlantiradi, ikkinchidan, bahs madaniyatini metodik qoidalar bilan tartibga soladi. Ushbu modelning tayanch tamoyillari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Falsifikatsiya uchun ochiqlik- har bir da'vo falsifikatsiya qilinishga tayyor bo'lishi, ya'ni tajriba, kuzatish yoki mantiqiy tahlil orqali rad etish ehtimolini o'z ichiga olishi lozim. Bu ochiqlik bahsni konstruktiv qiladi, dalillarning real sinovini tashkil etadi va “keltirilayotgan dalilni istisno qilish imkoni bormi?” degan savolni asosiy o'markazga qo'yadi [2.33-45].

- Qat'iy sinovlarga tayyorlik- nazariya eng kuchli va ehtimoliy zararli sinovlarga duch kelishi lozim. Yengil sinovlar tasdiqlovchi yanglish tasavvurlar tug'diradi, chuqur sinovlar esa nazariyani hayotiy muqobili bilan solishtirishga, zaif joylarini ko'rib chiqishga majbur qiladi [2.86-105].

- Xatoni aniqlash etikasi- Popperga ko'ra, bahsning ma'naviy-iqtisodiy foydasi – xatoni erta aniqlash va jarayon davomida osonroq yo'qotishlar bilan tuzatishdir. Bunda badiiy-etik talab – raqibni yengish emas, muammoni hal qilish ustuvor bo'lishi lozim.

- Muqobillarni taqqoslash- nazariya faqat ichki asoslar bilan kifoyalanmaydi, u muqobil nazariyalar bilan empirik va mantiqiy raqobatda ham sinalishi lozim. Bahs- bu strategik taqqoslash maydoni bo'lmog'i lozim.

- Intersub'yektiv tekshiruv- metodida qo'llanilgan isbotlar va dalillar jamoa tomonidan qayta sinab ko'rilishi mumkin bo'lishi kerak. Bu ham ochiqlikning bir shakli hisoblanib axloqiy prinsip hisoblanadi [3.145-170].

Popper konsepsiyasi zamonaviy argumentatsiya nazariyalari bilan samarali hisoblanadi va shu orqali “dialog”ga kirishadi. Pragmatik va dialektik yondashuv jihatdan bahsni muammo hal etishga yo'naltirilgan institutsional jarayon sifatida tushuntiradi. Unga ko'ra muhokama bosqichlari qarama-qarshilikni aniqlash,

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
2-son. 2-qism. Fevral-2026**

boshlang'ich nuqtalarni kelishish, argumentatsiya, yakuniy baholash kabi normativ qoidalar bilan mustahkamlanadi. Bu yondashuv Popper o'rnatgan "tanqidiy sinov va ochiqlik" tamoyillariga metodik hamroh bo'la oladi. Masalan, safsatabozliklar taqiqlanishi, dalillarni buzib talqin qilishdan tiyilish, e'tirozlarni asosiy da'voga yo'naltirish shartlari Popper talablari bilan uyg'undir [5.1-30]. Biroq Popper uchun markaziy bo'lgan falsifikatsiya ko'rsatkichi pragmatik qoidalar qo'yadi hamda argumentatsiya muhokama tartiblariga emas, asosan, nazariyaning sinovchanligiga aloqadordir.

Klassik justifikatsionizmga (bilim va e'tiqodlarni oqlash asoslab berish zarur degan falsafiy qarash.) muqobil sifatida Popper yondashuvi "dalil yetarililigi"ni "rad etish imkoniyati" bilan almashtiradi. Da'voning isbotlanishi shart emas, ammo uning qanday sharoitda rad etilishi mumkinligi ravshan bo'lishi lozim. Bu ilmiy maqolalarda ma'lum bir bo'limni to'liq bayon etish, qayta ishlab chiqarishga yaroqlilikni ta'minlash, tanlov xatolari va cheklovlarni oldindan e'tirof etish kabi talablar bilan uzviy bog'liqdir.

Popper "nazariyalar akkumulyativ tasdiqlar orqali emas, balki xatolarni yo'qotish orqali rivojlanadi" deydi. Bu holat ilmiy taraqqiyotni bahsiy-dinamik jarayon sifatida talqin qilishga olib keladi. Raqobatlashuvchi taxminlar ilgari suriladi, qat'iy sinovlar natijasida ba'zilar inkor etiladi, saqlanib qolganlar esa "vaqtinchalik g'olib" sifatida navbatdagi bahs bosqichiga o'tadi. Mazkur "doimiy orqaga qaytish" (feedback) mexanizmi ilmiy tilda "o'zini tuzatish" (self-correction) sifatida namoyon bo'ladi. Popper yondashuvi shu tariqa paradigmal "qattiqlashuv" xavfini kamaytiradi: nazariyalar dogmaga aylanmasdan turib tekshirish maydonida qolishi kerak[4.15-40].

Popper modelini amaliyotga tatbiq etish normativ qoidalarsiz mumkin emas. Quyidagi qoidalar ratsional bahsni tashkil qilishda tayanch bo'la oladi:

- Dalilni ochiq qo'yish: tadqiqot dizayni, ma'lumotlar, tahlil vositalari maksimal darajada shaffof bo'lishi kerak. Qayta ishlab chiqarish – Poppercha sinovning amaliy mezon.

- E'tirozni rag'batlantirish: muhokamada "tasdiq izlash" emas, balki "xatoni izlash" ruhiga ustuvorlik beriladi. Raqib pozitsiyasi konstruktiv tanqid sifatida qabul qilinadi.

- Metod vs retorika: bahsda ritorik g'alaba emas, metodik aniqlik muhim; safsata va chalg'itish usullaridan tiyilish – etik shart.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali 2-son. 2-qism. Fevral-2026

- Muqobil gipotezalar: “eng yaxshi tushuntirishga o‘tish” (inference to the best explanation) amaliy qaror bo‘lsa-da, Poppercha qat’iy sinovlar bilan muqobillarni tekshirmasdan “eng orqali”ni tanlash xavfli.

- Xatolarni hujjatlashtirish: rad etishlar, muvaffaqiyatsiz tajribalar yozib boriladi; “salbiy natija” ham ilmiy qiymatga ega ekanini tan olish zarur [7.220-242].

- Ilmiy nashr va hakamlik: Hakamlikda “falsifikatsiya” mezonining tekshirilishi maxsus band sifatida kiritiladi: muallif nazariyasining rad etilish sharoitlari qay darajada ravshan? Sinovlar qanchalik “qat’iy”?

- O‘quv jarayoni: Magistratura va doktoranturada “tanqidiy muhokama” seminarlarida har bir da’vo uchun muqobil hipotezalar ishlab chiqish va rad etish ssenariylarini yozma ishlab chiqish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

- Ma’lumotlar siyosati: Ochiq ma’lumotlar va replikatsiya loyihalari rag‘batlantiriladi; natijalar “musbat” bo‘lmasa ham nashr etish bo‘yicha “no-publication bias”ni kamaytirish choralari ko‘riladi.

- Argumentatsiya etikasi: Bahsda shaxsga o‘tish, niyatga yo‘yish, dalillarni selektiv talqin qilish kabi safsatalarga nisbatan “nol toqatsizlik” siyosati joriy etiladi. Bu ilmiy muhitda ishonchni oshiradi va Poppercha “xatodan o‘rganish” madaniyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

- Interdisiplinar muloqot: Popper modeli iqtisod, sotsiologiya, sun’iy intellekt tadqiqotlari kabi sohalarda ham qo‘llanadi; ayniqsa, model tanlash, bashoratdagi xatolarni kamaytirish, siyosiy neytrallikni saqlagan holda empirik dalillarni baholashda foydali.

Popper modeliga nisbatan zamonaviy metodologiyada bir nechta e’tirozlar muhokama qilinadi: masalan, falsifikatsiya amaliyotda har doim ham aniq emas; nazariya emas, aksincha, yordamchi gipotezalar yoki o‘lchash sharoitlari “aybdor” bo‘lishi mumkin. Bu “Duhem–Quine” muammosining Popperca talqinini talab qiladi. Poppening o‘zi ham metodologik qoidalarni qat’iylashtirish orqali yordamchi gipotezalar “immunizatsiya”sini cheklashni tavsiya etadi. Boshqa tomondan, argumentatsiya nazariyasi doirasida bahs qoidalari – masalan, pragma-dialektik normalar – falsifikatsiya mezonlarini muloqotiy jihatdan mustahkamlashi mumkin: e’tirozlar strukturasi, dalil-hujjatlarning izchil taqdim etilishi, yakuniy baholash protseduralari bahsni adolatli qiladi [5.1-30]. Demak, Popper modelini maksimal natija

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
2-son. 2-qism. Fevral-2026**

uchun mantiqiy (falsifikatsion), metodik (sinov dizayni) va muloqotiy (bahs qoidalari) komponentlar bilan integratsiyalash lozim.

Poppercha ratsional argumentlashning afzalliklari shundan iboratki, u:

- ilmiy hamjamiyatda tanqidga ochiqlik va xatodan o'rganish odatini shakllantiradi;

- "tasdiqlashga qaratilgan" motivatsiyani cheklab, "aniqlashtirish va inkor etish"ga qaratilgan ijodiy intizomni kuchaytiradi;

- normativ argumentatsiya qoidalari bilan uyg'unlashgan holda, bahsni adolatli va takrorlanuvchi qiladi;

- bahs ishtirokchilarini muqobillar bilan ishlashga, eng zo'r sinovlarni tanlashga, ilmiy etikani saqlashga majbur etadi.

Shu bilan birga, Poppercha qattiq falsifikatsiya yondashuvini statistik usullarga, bayesiy talqinlarga, eksperimentdan tashqari empirik dalil turlariga (masalan, dala tadqiqotlari) moslashtirish masalalari ochiq qoladi. Bu yo'nalishda murosali echim – qat'iy sinov talablarini "rejalashtirish bosqichida" kuchaytirish, keyin esa statistik baholash va replikatsiya yordamida e'tirozlarni mantiqiy mustahkamlashdan iborat. Mazkur birikma Popporni bugungi ilmiy amaliyotga yaqinlashtiradi va argumentatsiyani "ishonchli xatolar boshqaruvi" tizimiga aylantiradi [7.220-242].

Xulosa

Karl Poppening ilmiy bahs haqidagi tasavvuri bilimning o'sishini tanqidga ochiqlik, qat'iy sinovlar va xatolarni erta aniqlash etikasi orqali tushuntiradi. Uning ratsional argumentlash modeli justifikatsionizmga muqobil sifatida falsifikatsiya mezonini bahsning markaziga joylashtiradi; bahsning maqsadi "isbotlash" emas, "rad qilinib ehtimolini oshirib, xatoni topish"dir. Zamonaviy argumentatsiya nazariyalari bilan integratsiya Popper konsepsiyasini muloqotiy va institutsional jihatdan mustahkamlaydi: qoidalashtirilgan muhokama, ochiq metod, replikatsiya, etik me'yorlar – bularning barchasi Popper modelining amaliy samaradorligini oshiradi. Natijada ilmiy hamjamiyatda ratsional bahs – bilish jarayonining markaziy dvigateli sifatida yanada samarali ishlaydi; dalil va e'tirozning konstruktiv raqobati esa bilimning o'sishiga xizmat qiladi.

**O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
2-son. 2-qism. Fevral-2026**

Adabiyotlar ro'yxati

- 1) Popper, Karl. The Logic of Scientific Discovery. London: Routledge, 2002. pp. 27–48; 86–105.
- 2) Popper, Karl. Conjectures and Refutations: The Growth of Scientific Knowledge. London: Routledge, 2002. pp. 33–65.
- 3) Shearmur, Jeremy; Stokes, Geoffrey (eds.). The Cambridge Companion to Popper. Cambridge: Cambridge University Press, 2016. pp. 1–23; 145–170.
- 4) Rowbottom, Darrell P. Popper's Critical Rationalism: A Philosophical Investigation. London/New York: Routledge, 2011. pp. 15–40.
- 5) van Eemeren, Frans H.; Grootendorst, Rob. A Systematic Theory of Argumentation: The Pragma-Dialectical Approach. Cambridge: Cambridge University Press, 2004. pp. 1–30.
(Rus tilidagi manbalar)
- 6) Поппер, Карл. Логика научного исследования. Москва: Республика, 2005. с. 41–80; 97–120.
- 7) Ильин, В. В. Философия науки. Москва: Издательство Юрайт, 2019. с. 220–242.
- 8) Лекторский, В. А. Рациональность и ценности. Москва: Прогресс-Традиция, 2011. с. 75–102.
(O'zbek tilidagi manbalar)
- 9) Nazarov, Q. (mas'ul muharrir). Falsafa: Darslik. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. bet 312–330.
- 10) Yo'ldoshev, M.; Muxtorov, A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. bet 45–78.